

XII. O‘RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI




O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi. 2022- yil yanvar-sentabr oylarida viloyatda o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 799,4 ming so‘mni tashkil qilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,0 %ga oshganini ko‘rish mumkin. Hududlar bo‘yicha o‘rtacha oylik ish haqining viloyat o‘rtacha oylik ish haqiga nisbatan yuqori miqdori Olmaliq shahrida – 6 111,3 ming so‘mni (160,8 %), Bekobod shahrida 5 005,2 ming so‘mni (131,7 %), Nurafshon shahrida - 4 450,9 ming so‘mni (117,1 %), Qibray tumanida - 3876,1 ming so‘mni (102,0 %) tashkil etdi.

Aksincha, Bekobod tumanida - 2 182,2 ming so‘mni (57,4 %), Parkent tumanida - 2 333,7 ming so‘mni (61,4 %), Piskent tumanida - 2 417,5 ming so‘mni (63,6 %), Bo‘ka tumanida - 2 463,5 ming so‘mni (64,8 %), Chinoz tumanida - 2 466,4 ming so‘mni (64,9 %) tashkil etib, ushbu ko‘rsatkichni pasayganligini ko‘rish mumkin.

**O‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

**Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining
viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan o'zgarishi, %da**
(2022- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)




**Toshkent viloyati bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda
(qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari)**

Hudud nomi	2021- yil yanvar-sentabr	2022- yil yanvar-sentabr	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	3219,0	3799,4	118,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	3468,4	4450,9	128,3
Olmalik	5083,8	6111,3	120,2
Angren	2588,3	3070,1	118,6
Bekobod	3695,4	5005,2	135,4
Chirchiq	2990,7	3637,1	121,6
Ohangaron	2905,7	3780,2	130,1
Yangiyo'l	2337,7	3072,0	131,4
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	2172,8	2667,4	122,8
Ohangaron	2624,5	3752,9	143,0
Bekobod	1797,3	2182,2	121,4
Bo'stonliq	2454,5	3026,6	123,3
Bo'ka	1922,2	2463,5	128,2
Quyi Chirchiq	2246,8	2577,4	114,7
Zangiota	4645,4	3231,1	69,6
Yuqori Chirchiq	2468,0	3296,7	133,6
Qibray	3223,9	3876,1	120,2
Parkent	2053,8	2333,7	113,6
Piskent	2088,6	2417,5	115,7
O'rta Chirchiq	2587,2	3002,4	116,0
Chinoz	2011,8	2466,4	122,6
Yangiyo'l	2558,6	2908,3	113,7
Toshkent	2467,5	2864,6	116,1


**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

**Hududlar bo'yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning
o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ming so'mda**

(2022- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik biznes subyektlarisiz)



Hududlar bo‘yicha yuridik shaxslarda ishlovchilarning o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘atlari, %da
(2022- yil yanvar-sentabr, qishloq xo‘jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlarisiz)



**O‘rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**

Ish haqi. 2022- yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda (2021- yil yanvar-sentabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik subyektlaridan tashqari, ming so'm):



Ta'lim sohasida ishlovchilar soni 83 095 nafarni tashkil etdi.

Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 610,8 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 117,3 %ga o'sdi.



Sanoat sohasida ishlovchilar soni 113 489 nafarni tashkil etdi.

Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 4 895,8 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 118,6 %ga o'sdi.



Qurilish sohasida ishlovchilar soni 4 209 nafarni tashkil etdi.

Qurilish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 6 716,2 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 156,8 %ga o'sdi.



Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilar soni 5 373 nafarni tashkil etdi.

Ulgurji va chakana savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 654,0 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 111,9 %ga o'sdi



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilar soni 42 282 nafarni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 490,8 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 96,7 %ga kamaydi.



Tashish va saqlash sohasida ishlovchilar soni 3 991 nafarni tashkil etdi.

Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3 037,5 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 153,1 %ga o'sdi.


**O'rtacha oylik nominal
hisoblangan ish haqi**



Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilar soni 2 857 nafarni tashkil etdi.

Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 7 591,7 mln.so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 130,9 %ga o'sdi.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Ma'lumot uchun: "O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi" ko'rsatkichi iqtisodiyotda ish haqini baholashning uslubiy qoidalariga va xalqaro tavsiyalarga muvofiq, muayyan vaqt (soat, oy, yil) davomida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar (bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar) evaziga ish beruvchilar tomonidan amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda, soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimlarning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxslarga pul shaklida hisoblangan daromadlardan aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20- maydagi PF-138-son Farmoniga binoan 2022- yil 1- iyundan 920 000 so'mni tashkil etmoqda) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi